



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI  
TO'LOV TASHKILOTI FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH UCHUN

1-raqamli  
LITSENZIYA

2024-yil "22" iyun

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil "22" iyundagi 22/2-sonli qaroriga muvofiq

**"CLICK" aksiyadorlik jamiyati**


Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Darxon MFY, Salor bo'yи ko'chasi, 35-A-uy  
O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuniga  
asosan to'lov tashkiloti sifatida faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

**Ushbu litsenziya cheklanmagan muddatga berildi.**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu litsenziya shartlariga  
o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi hamda O'zbekiston Respublikasining  
"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va "To'lovlar va to'lov  
tizimlari to'g'risida"gi qonunlarida nazarda tutilgan hollarda uni bekor qilishi mumkin.

To'lov tashkiloti 2020-yil "28" martda 1-raqam ostida to'lov tashkilotlari  
reyestriga kiritildi.

*O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy bankining vakolati shaxsiy  
N. Saydullayev*





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI  
QARORI

2024 -y. " 22 " iyun

22/2 -son

Toshkent sh.

**"CLICK" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli  
"CLICK" aksiyadorlik jamiyatiga hamda joylashgan yeri (pochta  
manzili) o'zgarganligi munosabati bilan unga to'lov tashkiloti  
faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani qayta  
rasmiylashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bank nazorati qo'mitasining  
"CLICK" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli  
"CLICK" aksiyadorlik jamiyatiga hamda joylashgan yeri (pochta manzili)  
o'zgarganligi munosabati bilan unga to'lov tashkiloti faoliyatini amalga  
oshirish uchun berilgan litsenziyani qayta rasmiylashtirishni maqsadga  
muvofig deb topish to'g'risidagi qarorini ko'rib chiqib, "O'zbekiston  
Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi  
Qonunining 20-moddasiga muvofig Markaziy bank boshqaruvi

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan Litsenziyalash va ruxsat berish  
tartiboti departamenti direktori Z. Zunnunovning bergen axboroti va Bank  
nazorati qo'mitasining 2024-yil 21-iyundagi 621/9-sonli qarori ma'lumot  
uchun qabul qilinsin.

2. "CLICK" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli  
"CLICK" aksiyadorlik jamiyatiga hamda joylashgan yeri (pochta manzili)  
o'zgarganligi munosabati bilan unga to'lov tashkiloti faoliyatini amalga  
oshirish uchun berilgan litsenziya qayta rasmiylashtirilsin.

3. Jamoatchilik bilan aloqalar va kommunikatsion siyosat departamenti  
belgilangan tartibda "CLICK" mas'uliyati cheklangan jamiyatining  
tashkiliy-huquqiy shakli "CLICK" aksiyadorlik jamiyatiga hamda joylashgan  
yeri (pochta manzili) o'zgarganligi haqidagi xabarni Markaziy bankning  
rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish raisning birinchi  
o'rindbosari N. Saydullayev zimmasiga yuritilsin.

**Markaziy bank raisi**



**M.B.Nurmuratov**